

# HUMANS «IPHONES SOVRINLI O'YIN» MARKETING KAMPANIYASINING (SOVRINLI O'YINNING) O'TKAZILISH QOIDALARI

31 avgust 2023 y.

## 1. Umumiy qoidalar

- 1.1. Sovrinli o'yin tashkilotchisi: «Humans» Mas'uliyati cheklangan jamiyati, manzil: 100047, O'zbekiston Respublikasi, Toshkent sh., Maxtumquli ko'ch., 2 B uy, STIR 306624856 (Tashkilotchi).
- 1.2. Ushbu Qoidalar matnida bosh harfda yoziladigan so'zlar atamalar hisoblanadi. Atamalar [www.humans.uz](http://www.humans.uz) saytida joylashtirilgan Humans aloqa xizmatlarini ko'rsatish Shartlarida va "Mahsulotlar va xizmatlar vitrinasasi" servisidan foydalanish Qoidalarida keltirilgan, agar ushbu Qoidalarda boshqasi nazarda tutilmagan bo'lsa.
- 1.3. Sovrinli o'yin yangi abonentlarni jalg qilish, Tashkiloychining xizmatlari sotuvini oshirishga yo'naltirilgan.
- 1.4. Tashkilotchi bilan Aloqa xizmatlarini ko'rsatish to'g'risida Shartnoma tuzgan jismoniy shaxslar, shuningdek "Ravnaq-bank" AJ bilan Humans moliyaviy xizmatini ko'rsatish to'g'risida Shartnoma tuzgan va uning asosida Ishtirokchiga berilgan Humans Visa bank kartasi va Qoidalarning 2.1-bandida ko'rsatilgan harakatlarni amalga oshirgan jismoniy shaxslar (keyingi o'rnlarda "Ishtirokchi") sovrinli o'yinda ishtirok etishi mumkin.
- 1.5. Sovrinli o'yinda Ishtirokchining ishtirok etish fakti Ishtirokchining mazkur Qoidalar bilan tanishishini va Sovrinli o'yinda mazkur Qoidalarga binoan ishtirok etishga roziligini anglatadi.
- 1.6. Sovrinli o'yin o'tkazilish davri - 04.09.2023dan 01.10.2023gacha.
- 1.7. Sovrinli o'yin o'tkazilish hududi – O'zbekiston Respublikasi.
- 1.8. Tashkilotchi ushbu Qoidalarning 5-qismida ko'rsatilgan sovrinlarni (keyingi o'rnlarda "Sovrinlar" deb yuritiladi) ushbu Qoidalarga muvofiq G'olib deb topilgan Ishtirokchilarga topshiradi.

## 2. Sovrinli o'yinda ishtirok etish tartibi va shartlari

- 2.1. Sovrinli o'yin o'tkazilishi davrida Ishtirokchi quyidagi harakatlar kombinatsiyasini bajarishi kerak:
  - 2.1.1. Quyida 2.3-bandda ko'rsatilgan toifadagi Hamkorlarga bir kunda Humans Visa Bank kartasi orqali har biri kamida **100 000 UZS** bo'lgan kamida 2ta (ikkita) To'lovnini amalga oshirish.

2.1.2. 2.1.1 banddag'i talablarga muvofiq 2ta (ikkita) to'lovni amalga oshirib, Ishtirokchi Sovrinli o'yinda g'olib bo'lish uchun 1ta (bitta) "imkoniyatga" ega bo'ladi.

2.1.3 Ishtirokchi bir kalendar kuni ichida cheksiz miqdordagi "imkoniyatlarga" ega bo'lishi mimkin.

2.2. Bitta odam butun Sovrinli o'yin o'tkazilishi davrida faqat bir marta g'olib bo'lishi mumkin.

2.3 Sovrinli o'yinni o'tkazish Quyidagi toifalarga kiradigan Hamkorlarga amal qiladi (MCC kodlar):

- 5411 Boqqollik do'konlari, supermarketlar
- 5814 Fastfud
- 5812 Jamoat ovqatlanish joylari, restoranlar
- 5813 Barlar, kokteyl-barlar, diskotekalar, tungi klublar va tavernalar – alkogol ichimliklari sotish joylari
- 5811 Oziq-ovqat yetkazib beruvchilar
- 5441 Qandolat do'konlari
- 5462 Novvoyxonalar
- 5311 Univermaglar
- 5422 Xom va muzlatilgan go'sht sotish joylari
- 5451 Sut mahsulotlarini chakana sotish joylari
- 5499 Turli oziq-ovqat mahsulotlari do'konlari - boshqa hech qayerda tasniflanmagan
- 5999 Turli do'konlar va maxsus chakana do'konlari
- 5331 Universal do'konlar

2.4. 2.1-bandda ko'rsatilgan harakatlar yig'indisi va ushbu Qoidalarning

2.3-bandi Ishtirokchining ushbu Qoidalarning 5-bo'limida ko'rsatilgan Sovrinlar uchun da'vogarga aylangan Sovrinli o'yinda ishtirok etish uchun arizasi deb e'tirof etiladi.

2.5. Tashkilotchi Ishtirokchining insofsiz xatti-harakatini aniqlasa, o'yinda ishtirok etishdan chetlashtirish huquqini o'zida saqlab qoladi.

### **3. Sovrinli o'yin o'tkazilishi muddatlari**

3.1. Sovrinli o'yin 04.09.2023dan 01.10.2023gacha o'tkaziladi.

3.2. Sovrinli o'yin g'oliblarini aniqlash 11.09.2023dan 08.10.2023gacha bo'lgan Sovrinli o'yin o'tkazilishi davomida har hafta o'tkaziladi.

3.3. Sovrin g'oliblarga 08.10.2023dan kechiktirmay topshiriladi.

### **4. Sovrinli o'yin g'oliblarini aniqlash**

4.1. G'olib har hafta ushbu Qoidalarning 3-bo'limida belgilangan kunlarda aniqlanadi.

4.2. Tasodifan tanlash natijasida aniqlangan va ushbu Qoidalarning 2.1-2.3 bandlarida belgilangan me'zonlarga mos Ishtirokchilar g'oliblar teb tan olinadi. Tashkilotchi tasodifiy raqam tanlash orqali har hafta o'tkaziladigan Sovrinli o'yinda 2ta (ikkita) G'olibni aniqlaydigan pudratchini jalb qiladi.

4.3. Ushbu Qoidalarning 3.2 bandida ko'rsatilgan muddatlarda Tashkilotchi instagramda @humans.uz akkaunti postida Sovrinli o'yin G'oliblarini xabardor qiladi.

## **5. Sovrinli o'yinning sovrin jamg'armasi**

5.1. Sovrin sifatida har bir G'olibga *iPhone 14, 256GB devaysi taqdim etiladi.*

5.2. G'olib Sovrining o'rniga Sovringa teng ekvivalentdagi pulni talab qilishga haqli emas. Sovringa teng ekvivalentda pul miqdorini to'lash, Sovrinni almashtirish Tashkilotchi tomonidan amalga oshirilmaydi.

5.3. Sovrinni olish huquqi G'olib tomonidan boshqa shaxsga o'tkazilib yuborilishi mumkin emas.

## **6. Yakuniy qoidalar**

6.1. Sovrinli o'yinni o'tkazish natijalari yakuniy hisoblanadi va qata ko'rilib chiqilmaydi.

6.2. Sovrinli o'yinni tayyorlashdam o'tkazishda va ishtirok etishda O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi va ushbu Qoidalarni buzishga yo'l qo'yilmaydi.

6.3. Tashkilotchi humans.uz saytida Ishtirokchilarni xabardor qilib, ushbu Qoidalarni o'zgartirishi yoki Sovrinli o'yinni bekor qilishi mumkin. Qoidalar Tashkilotchi Saytida tegishli yangilik e'lon qilingan sanadan boshlab bekor qilingan yoki o'zgartirilgan hisoblanadi.